

Ways to develop social activism of university students

Qurbanova Guzal Mamatkarimovna

p.f.n., associate professor of Tashkent State Pedagogical University

kurbanovaguzal@ru.

Ushbu maqola oliy o‘quv yurtlari talabalarining ijtimoiy faolligini rivojlantirish yo‘llari ko‘rsatilgan. «Faoliyat» tushunchasi ochib berilgan.

Kalit so‘zlar: talaba, universitet, o‘qituvchi, ijtimoiy faoliyat, rivojlanish, takomillashtirish.

This article shows the social activity of students of higher educational institutions.

The concept of “activity” is disclosed.

Key words: student, university, teacher, social activity, development, improvement.

В данной статье показана социальная активность студентов высших учебных заведений. Раскрыто понятие “активность”.

Ключевые слова: студент, вуз, преподаватель, социальная активность, развитие, совершенствование.

Shaxs ijtimoiy faolligini shakllantirish va rivojlantirish masalalari faylasuflar, sotsiologlar, pedagoglar va psixologlar tomonidan qadimdan tadqiq qilib kelingan. Ushbu muammoning pedagogik jihatni ta‘lim-tarbiya jarayonida shaxs ijtimoiy faolligini yanada muvaffaqiyatli rivojlanishiga yordam beradigan sharoitlarni aniqlash va o‘rganishni o‘z ichiga oladi. Insoniy fazilatni hosil qilishning ijtimoiy funksiyasi sifatida bunday tarbiya madaniy kontekstdan va oiladan tashqarida mumkin emas. Tarbiya maxsus tashkil etilgan faoliyat sifatida pedagog va tarbiyalanuvchining, kattalar va bolalarning unda barkamollikka erishadigan qadriyatli-mazmuniy o‘zaro munosabati sifatida belgilanadi.

Zamonaviy mutaxassis shaxsning muhim fazilati ijtimoiy faollikdir. Ushbu tadqiqotning ilk nazariy pozitsiyalari ifodasida biz, avvalo, “ijtimoiy faollik” tushunchasining mohiyati va mazmuni tahliliga murojat qildik. Ijtimoiy faollik shaxsning integrativ xarakterikasidan izchil ravishda “ijtimoiy faollik” tushunchasining tahlilini ko‘raylik. Ilmiy adabiyotda

“faollik” kategoriyasi keng ma’noda materiyaning (borliqning) umumiy sistemali sifat fazilatida, uning o‘zi va atrof-muhit bilan o‘zaro munosabatga kirishish qobiliyati sifatida qaraladi. “Jonli va jonsiz” tabiatda, ijtimoiy harakatda deyarli hamma kimyoviy, jismoniy, biologik, ijtimoiy faollik mavjud. Materiyaning umumiy xossasi sifatida faollik ifodalanadi:

- a) uning o‘zini o‘zi harakatga undash qobiliyatida; b) boshqa ob’yektlarni o‘zgartirish qobiliyatida; v) tashqi munosabatlар ta’sirida, ob’yektlar tabiatini dolzarblashtiradigan muayyan ichki holatlarni rivojlantirish qobiliyatida [1]. “Faollik” tushunchasi turli fanlarning tadqiqotiga kiradi. Ularning har biridan

bu tushunchaga o‘zining boshqa fanlardagidan birmuncha farq qiladigan mazmuni qo‘yiladi. Bu u yoki bu fanlar predmeti xususiyatlari bilan ularda bu tushunchani ishlatalishining ma’lum an’naviyligi bilan bog‘lik. Faollik biologik jihatdan “jonli mavjudotlarning umumiy xarakteristikasi, ularning jonli mavjudotga xos dinamikasining o‘zgartirish manbai yoki ular tomonidan atrof-muhit bilan hayotiy ahamiyatli aloqalarni quvvatlash manbai sifatida hamda sezishning mustaqil kuchiga qobiliyat sifatida qaraladi” [2].

Ijtimoiy faollik — faollikning yuksak shaklidir. U faqat insonga ijtimoiy mavjudot sifatida, insonlar guruhibiga, jamiyatga xos. Odatda “ijtimoiy faollik” atamasi ijtimoiy munosabatlarning muayyan tizimida insonlarning intensiv faoliyatini belgilash uchun qanday bo‘lsa, uni amalga oshirishga qobiliyatni belgilash uchun ham shunday ishlataladi.

Xorijlik olimlardan E.Dyurkgeym, T.Parsonslarning turli konsepsiyalarida ijtimoiylashuvning sub'yektiv-ob'yektiv munosabatlari faollik bilan ham qandaydir ob’yektlarning xossasi sifatida, ham ularning o‘zaro munosabati jarayonining o‘lchovi sifatida bayon etilgan [3, 22]. Faollik u yoki bu sistemaning o‘z-o‘zini harakatga, o‘z-o‘zini rivojlantirishga, o‘z-o‘zini yo‘lga qo‘yishga qobiliyat darajasi sifatida belgilanadi [4, 33]. U qandaydir o‘zgarmas, berilgan, doim tanish mohiyat emas; u o‘z shakllari va rivojlanish darajasini doim o‘zgartirishi shart va rivojlangan olamning ajralmas xususiyati, sharoitlariga moslashuvi sub'yekt va ijtimoiy muhitning o‘zaro faol yaqinlashuv jarayoni va natijasidir deb bayon etilgan.

Amerikalik sotsiolog F.G.Kedding ijtimoiylashuv nazariyasi kitobida ijtimoiy tabiat yoki individ xarakterini rivojlantirish, insonni ijtimoiy hayotga tayyorlashdir deb fikrini bildirgan. Fransuz olimi G.Tard, amerikalik U.Bronfenbrener, rus olimi A.V.Petrovskiy larning tadqiqotlarida

ijtimoiylashuv mexanizmlariga turli yondashuvlar keltirib o‘tilgan. Ijtimoiylashuv tushunchasini fanga kiritgan M.Veber uni muammolarni yechishga qaratilgan harakat, inson xulq-atvorining taxminiy variantlarini sub'yektiv anglash sifatida, 3.Freyd bolaning kamol topishi, shaxs bo‘lib shakllanishida ijtimoiy, xususan, ota-onalar va bola o‘rtasidagi munosabatlar, ularning o‘zaro hissiy birligi muhim ahamiyatga egaligi, J.Piaje shaxs muayyan sxemalar hamda kognitiv tuzilmalar yordamida boshqariladi; shu sababli uning ana shu sxema va kognitiv tuzilmalarga moslashuvi ijtimoiylashuv mohiyatini anglatishi, T.Persons, R.Beyla shaxs ijtimoiy ta’sirlar yordamida ilmiy bilimlar hamda kishilik madaniyati komponentlarini o‘zlashtiradi, ularning negizida esa u aqliy jihatdan kamol topadi va axloqiy sifatlarga ega bo‘ladi - mazkur holat shaxs ijtimoiylashuvining ustuvor jihatni deb hisoblangan.

R.Benedikt, M.Mid shaxsning ijtimoiylashuvi turli ijtimoiy tuzumlar, jamiyat rivojining muayyan davrlarida bir xil kechmaydi, har bir davr shaxsning ijtimoiylashuvida o‘ziga xos ko‘rinishda namoyon bo‘lishini keltirib o‘tishgan.

Shaxs faolligi fan-texnika va ijtimoiy taraqqiyot asosida yotadi, u yangi avlod tarbiyasi va ta’limga keng spektrli talablarni qo‘yadi. Ta’limda muhim rol turlicha namoyon bo‘lishga ega bo‘lgan motivatsiyaga tegishli.

Shunday qilib, faol qaytarish (qaytadan boshlash, yangilash) tushunishga, esda saqlashga va bilimlarni taqrorlashga intilish bilan hamda ularni berilgannamuna bo‘yicha qo‘llash usullarini egallah bilan izohlanadi. Interpretatsiya (talqin kilish) faollikning namoyon bo‘lish darajasi sifatida o‘rganilgan narsaning mohiyatiga yetishni, jarayonlar va xodisalar o‘rtasida aloqa o‘rnatishni, o‘zgartirilgan sharoitlarda olgan bilimlarni qo‘llash usullarini egallahni xohlash bilan bog‘lik. Ijodiy faollik bilimlarni nazariy tahlil qilishga intilish bilan bir qatorda muammoni hal etishni, mustaqil izlashni bilish ehtiyojlarini qondirishni ko‘zda tutadi [1, 44]. Shaxs ijodiy faolligi o‘rab turgan dunyoni o‘zgartirishga yo‘nalgan faoliyat sifatida ham shaxs ta’limi (muhit bilan maqsadga yo‘naltirilgan o‘zaro munosabatga tayyorlikda, shaxsning maqsadga intiluvchanlik, qat’iyatlilik, harakat kilishga xohish, ishchanlik va tashabbuskorlik bilan izohlanadigan ehtiyojlari va manfaatlaridan kelib chiqadigan mustaqil faoliyatga intilishda namoyon bo‘ladigan) sifatida ko‘rib chiqiladi/qaraladi.

Inson faolligining integral xarakteristikasi bo‘lib uning so‘z va ish birligida, prinsipialligida,

o‘z qarashlarini himoya qilish ketma-ketligida ifodalanadigan faol hayotiy pozitsiyasi maydonga chiqadi. Hozirgi pedagogika fani faolikka shaxsning rivojlanish xususiyatlarini asoslaydigan tizim, tashkil qiluvchi omil sifatida qaraydi.

Faollik o‘zgarishlarga tayyorlik, moslanish, mustaqil harakat qilishga intilish kabi fazilatlarda amalga oshiriladi, bunda ijtimoiy tajriba, insoniyat to‘plagan bilimlarni va maqsadga erishish uchun yanada qulay yo‘llarni tanlash yordamida faoliyat usullarini o‘zlashtiradi.

Tadqiqotchilar shaxs faolligini motivatsiya, maqsadga yo‘nalganlik, anglashilganlik, emotsiyonallik, harakat usullari va yo‘llarini egallash kabi tavsiflarni birlashtiradigan va kuchaytiradigan maxsus (alohida) faoliyat sifatida tushunilib, vaziyatlilik kabi xususiyatlarning zarurligini ta’kidlaydilar [3]. Maqsadga yo‘nalganlik deganda shu narsa tushuniladiki, har qanday faoliyat biror narsa uchun amalga oshiriladi, ya’ni insonning ongli qiyofasi (obrazi) sifatida tushuniladigan muayyan maqsadlarga erishishda mujassamlashgan va faoliyat subyekti motivatsiyasi bilan belgilanadi.

Shaxs tashqi va ichki motivlar ta’sirida paydo bo‘ladi, ijtimoiy muhitni o‘zlashtirish davomida ulardan muhimini tanlaydi va uni faoliyat maqsadiga aylantiradi. Shunday qilib maqsad bu - ongli motiv.

Demak, faoliyat agar ongli va asoslangan xarakterga ega bo‘lsa, mahsulli bo‘ladi. Faollik haqidagi faoliyatning shakli sifatida tasavvur shu haqida gapirishga imkon beradiki, faolikka faoliyatning asosiya tavsiflaridan tashqari xodisalardan, harakat natijalaridan kelib chiqadigan va motivlar bilan bog‘likanglashilganlik va emotsiyonallik ham xos bo‘lishi lozim [2].

Shaxs ijtimoiy faolligini shakllantirish masalalari tadqiqoti uzoq o‘tmishdan boshlangan. Uning buloqlari qadimgi shark mutafakkirlarining falsafiy qarashlarida, antik olimlar konsepsiyalarida, o‘rta asr olimlari asarlarida hamda yangi davr olimlari, xozirgi falsafiy oqimlar vakillarining asarlarida uchraydi.

Shunday qilib, shaxsning individual rivojlanishi, uning ijtimoiy salohiyatini rivojlantirish talabaning shaxsiy va kasbiy nuqtai nazarini shakllantirish orqali amalga oshadi. Talabalarda ijtimoiy faollikni rivojlantirish zamon talabi hisoblanadi.

Adabiyotlar:

1. “Педагогик маданият асослари” фани ишчи дастури / Тузувчилар:

Н.М.Эгамбердиева, Р.Ж.Ишмухаммедов. – Т.: ТДПУ, 2006. – 12 6.

2. Кадиров Б.А. Традиционная педагогическая культура узбекского народа (история, теория, практика): Автореф. дис. д-ра пед. наук. – М., 1992. – 41 с.

3. Маматкулова Р. Воспитание морально-этических качеств студентов университетов на основе национально-духовного наследия народа: Автреф. дис. канд. пед. наук. – Т., 1995. – 22 с.

4. Педагогические технологии / Под ред. В.С.Кукушина. – М.: Март, 2006. – 336 с.